

SPORTCHILARNI O'QUV MASHG'ULOT JARAYONINI TAYYORLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH

Boqiyev Y.A.

Namangan davlat universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada sportchilarni o'quv mashg'ulot jarayonini tayyorlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish masalalari keng tahlil etilgan. Maqola so'ngida sportchilarni o'quv mashg'ulot jarayonini tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sport, yoshlar, komil inson, o'yinlar, olimpiada, dastur, tarbiya, tizim, oliy ta'lim,

ABSTRACT

The article analyzes the issues of improving and developing the system of training athletes in the training process. The article concludes with suggestions and recommendations for improving the system of training athletes.

Keywords: sports, youth, perfect man, games, olympiad, program, education, system, higher education,

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы совершенствования и развития системы подготовки спортсменов. Статья завершается предложениями и рекомендациями по совершенствованию системы подготовки спортсменов.

Ключевые слова: спорт, молодежь, совершенный человек, игры, олимпиада, программа, образование, система, высшее образование,

KIRISH

Sharq mutafakkirlari ma'naviy boy, jisman barkamol, komil inson masalasiga azal-azaldan alohida e'tibor berganlar. Komillik fazilatlaridan eng ulug'i tanning inson jismining, barkamolligidadir deyiladi. Mamlakatimiz jismoniy tarbiya tizimi xalqchilligi deganda, biz milliy o'yinlar tarzida xalq ommasi orasida keng tarqalgan jismoniy mashqlar, milliy sport turlari, ommaviy sport, olimpiadalar dasturidan o'rin olgan katta sport bilan ko'p millatli respublikamiz xalqlarini shug'ullanish imkoniyati borligi tushuniladi. Ilmiyligi shundaki, jismoniy tarbiya sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining keng tarqalganligi va uni amaliyot bilan bog'lab olib borilayotganligi, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining ilmiy fanlari hisoblangan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, sport tibbiyoti, sport

metrologiya, davolash fizikulturasining va boshqalarga tayanganligi, ularning ilmiy yutuqlari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqimiz hayotiy e'xtiyojini qondirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya tizimi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan zvenolarga bo'linib, hozirgi kunda ham tarbiya jarayonining turli dasturlarning bajarilishi shu zvenolarda amalga oshirilmoqda:

- a) Maktabgacha ta'lim (davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari) zvenosi;
- b) Maktab yoshidagilar jismoniy tarbiyasi (umumiy o'rta ta'lim 1-9 sinflar) zvenosi;
- c) O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim (akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari) zvenosi;
- d) Oliy ta'lim zvenosi;
- e) Armiya zvenosi;
- f) Oliy ta'lim va armiyadan so'ng xavasmandlik asosidagi jismoniy tarbiya zvenosi;

Jismoniy tarbiya tizimi o'zida quyiagi asosiy elementlarni birlashtiradi:

- a) Jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va prinsiplarining maqsadga muvofiqligi;
- b) Jismoniy tarbiya tizimida qo'llaniladigan vositalar – gimnastika o'yinlari, sport, turizm va boshqalar tipidagi jismoniy mashqlar;
- c) Turli shakldagi pedagogik jarayon mobaynida qo'llaniladigan usuliyat (ta'lim jarayon, usuliyatlari, sport trenerovkasi va mustaqil mashg'ulotlarida foydalaniladigan)lar;
- d) Jismoniy tarbiya maksadida kishilarni uyushtirish shakllari;
- e) Jismoniy tarbiya mazmuni va natijalarida ifodalangan jamiyat va davlat talablari (normalar va dasturlar)

Jismoniy tarbiya tizimining taxlili masalalariga oid nazariy material rus olimlari A.D.Novikov, L.P. Matveev, G.T. Xarabugi va qator boshqa mualliflarning darsliklarida to'la yoritilgan. Jismoniy tarbiya jarayonining nazariy, uslubiy amaliyotining umumiyliги jismoniy tarbiya tizimining negizini tashkil qiladi.

Millatizimning bu soxadagi merosini o'rganish fanimizning asosiy vazifasidir. Jaxongirlarni yuzaga chiqargan yurtimizning elat va xalqlari jismoniy madaniyati tarixiy manbalarda o'zo'rnini olganligiga ishonchimiz komil. Shuni takidlash joziki, P.F. Lesgaft va uning shogirdi V.V Gorinevskiylar sobiq sho'rolar jismoniy tarbiya tizimining asoschilari deb tan olinganligi jismoniy tarbiya nazariyasining

rivojlanishida munosib xissa qo'shgan olimlar sifatida jaxon jismoniy madaniyati fani namoyondalari qatoridan o'rin olganliklarini e'tirof etish lozimdir. P.F. Lesgaft (1837-1909) biolog, anatom, pedagog va katta jamoatchi sifatida inson shaxsining intellektual rivojlanishi uchun uning yashagan ijtimoiy muhiti va tarbiyasi rol o'ynashini ilmiy jixatdan asoslab berdi. Lesgaft tomonidan ishlanga "Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy bilimlar" tizimi hozirgi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

V.V. Gorinevskiy (1857-1937) o'zining tibbiy-pedagogik faoliyatida Lesgaft fikrlarini rivojlantirib sobiq sho'rolar tuzumi jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishga katta xissa qo'shgan. U jismoniy mashqlar bilan shugu'llanuvchilar ustida o'tkazishni tadqiqot nazoratini qilishning ilmiy uslubiy kompleksini yaratdi.

P.F. Lesgaft va uning shogirdi V.V. Gorinevskiylarning ilmiy merosining qiymati shundaki, ularning jismoniy bilimlar va jismoniy tarbiya haqidagi ilmiy fikrlari amaliy va jamoatchilik tajribasi asosiga tayanganligidadir. So'ngi yillarda deyarli hamma sport turlarida kuzatilayotgan natijalarning o'sishini sportga bo'lgan e'tiborni yanada ortishi, sport fani taraqqiyoti va uning amaliyotga yaqinlashishi, trenerovka mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda o'tkazishning ilg'or uslublari, moddiy-texnik sport bazasini yaxshilanishi, sport maydonlarida raqobatning kuchayishi bilan tushuntirish mumkin. Sportchilarning natijalarini o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri – bu trenerovka jarayonlarini tashkil qilish shakllarini takomillashtirish hisoblanadi.

Trenerovka mashg'ulotlarining 1 kunda nech mahaldan qancha vaqt davomida olib borishni rejalashtirish, xaftalik rejalashtirish, oylik rejalashtirish va yillik rejalashtirish asosida tashkil etish bu sportchilarning oldinda bo'ladigan musobaqalarga maksimum tayyor bo'lishini ta'minlaydi.

O'quv-mashg'ulot yig'ini tashkil etishda, yig'ini o'quv rejasi asosiy hujjat hisoblanadi. U quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim:

1. Yig'in maqsadi va vazifalari.
2. O'tkazish joyi.
3. O'tkazish muddatlari.
4. Ishtrokchilar soni.
5. Ma'muriyat, tibbiy va ilmiy xodimlar lavozimlari ko'rsatilgan xolda ularni soni.
6. Trenerovka sikli.
7. Bir kunda o'tkaziladigan trenerovka soni va vaqti.

8. Trenerovka vositalari ro'yxati, ularning har biriga ajratiladigan o'quv soatlari va soatlarning umumiy yig'indisi.

9. Nazariy mashg'ulotlar mavzulari ro'yxati, ularga ajratiladigan o'quv soatlari soni va soatlarni umumiy yig'indisi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quv-mashg'ulot yig'inlari tugagandan so'ng ularni tahlil qilish orqali, yig'ini tashkillashtirish va o'tkazishdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashda yordam beradi.

REFERENCES

1. Kodirov N. Problems of the globalization of information culture in the current time //Știință, educație, cultură. – 2020. – T. 4. – C. 272-274
2. Kadirov N. M. Social and physical experience of information and information culture //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 3. – C. 165-170.
3. Kodirov N. M. Transformation and globalization of information media //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 12. – C. 83-93.
4. Nodirbek Kodirov Mamasoliyevich. (2021). Current issues of formation of information culture in youth. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5770626>
5. Kodirov N. M. TRANSFORMATION AND GLOBALIZATION OF INFORMATION MEDIA //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 12. – C. 83-93.